Qoraqalpog'iston respublikasida turizmni rivojlantirishning zamonaviy imkoniyatlari	1364
Isakov Janabay Yakirbaevich	
Investitsion salohiyat tushunchasi va uni boshqarishning zarurligi	1375
To'raev Jasurali To'raevich	
Samarali boshqaruv strategiyalarini shakllantirishda energiya sarfini optimallashtirish usullari	1379
Xamdamova Gavxar Absamatovna	



Banklarga zamonaviy xizmat turlarini joriy etishda infratuzilmaning roli	1385
Umarova Malika Baxtiyarovna	
Turistik korxonalar raqobatbardoshligi mohiyati	1391
Mahamadova Muslimaxon Muzaffar qizi	
Tijorat banklarida innovasion faoliyatni rivojlantirish strategiyasining asosiy yo'nalishlari	1394
Rahmanov Zafar Yashinovich	
O'zbekiston yashil iqtisodiyotga o'tish yo'lida: barqaror rivojlanish va energiya samaradorligi.....	1398
Nabiyev Olimjon Abdusalomovich	
Ishsizlikda gender tengsizligini aniqlash metodologiyasini takomillashtirish	1403
Oxunova Oygul Usmonjon qizi	
“O'zbekneftgaz” AJ korxonalariga kiritilayotgan investisiyalarning iqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlili	1409
Yuldoshev Sobir Fayzullaevich	
Сотрудничество таможи с промышленностью: новый взгляд на обеспечение глобальной безопасности и экономической стабильности	1414
Муратова Шохиста Ниматуллаевна	
Agrar sohada kadrlar salohiyatining ishlab chiqarish samaradorligiga ta'siri	1420
Boltayev Nazarbek Narzullayevich	
Влияние туризма на рост экспорта текстильной продукции	1426
Сулейманова Шоира Алавхановна	
Moliyaviy tizimda xavfsizlikni ta'minlash amaliyotini takomillashtirish masalalari.....	1432
Akbarov Behzodxon Ulug'bek o'g'li	
The revenue manager in the hospitality industry	1441
Kalandarova Gulnoza	
The improvement of funding business operations for the local enterprises in the Republic of Uzbekistan through issuing financial securities by means of the Tashkent Stock Exchange.....	1445
Abduganiev Abdulaziz	
Milliy iqtisodiyotimizga qimmatli qog'ozlar bozori orqali investitsiyalarni jalb etish yo'llari.....	1449
Rahimov Jasur To'liqin o'g'li	
O'zbekiston turizm industriyasida ekoturizm iyerarxiyasi: yuqori iqtisodiyot – jamoaga asoslangan ekologik tiklanish.....	1454
Vayskulov Ramazon, Xushvaqto'v Ramziddin, Turayev Javohir	
Роль и значение сферы туризма в переходе к зеленой экономике в Республике Узбекистан.....	1459
Саломов Фаррух Комил Угли	
Tijorat banklari rahbarlarining iqtisodiy komretentligini shakllantirish va xodimlarini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari.....	1464
Nigmatova Gulnora Nurxanbetovna	
Обесценение активов по МСФО	1469
Якубова Дилфуза Тургуновна	
Barqaror raqamli turizmning rivojlanish modellari: zamonaviy yondashuvlar va istiqbolli strategiyalar	1474
Shirinova Madina Murod qizi, Kaxorov Azamat Abdulloyevich	
Tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda raqamli texnologiyalardan foydalanish.....	1481
Akbarov Abdulhamid Akmal o'g'li, Ahrorqulov Jonibek Otabek o'g'li	
Turkiy davlatlar tashkilotining iqtisodiy salohiyati	1486
Abduraxmonov Farxod Abdufarmonovich	
Sanoat korxonalarida mahsulotlar eksportining iqtisodiy mexanizmlari va xorijiy tajribasi	1491
Akramova Zuhraxon Baxtiyorjon qizi	
Paxta tozalash korxonalarida pnevmotransport tizimida paxta xomashyosining shikastlanishini aniqlovchi qurilmaning matematik model asosida amaliy tadqiq etish	1496
Boltabayev Bekzod Egamberdiyevich	



Inklyuziv turizm destinatsiyalarini shakllantirishning institutsional asoslari va boshqaruv modellari	1502
Bekzod Sherzodovich Sharipov	
Ishsizlarni rasmiy ish bilan bandligini ta'minlashning yangi usullarini ishlab chiqish imkoniyatlari.....	1509
Farhod Bagibekovich Xalimbetov	
Mintaqa investitsion jozibadorligiga ta'sir etuvchi omillarni sotsiologik o'rganish va baholash	1513
J.A.Ismatullaev, A.Q.Do'lanov	
Marketingda sun'iy intellektdan foydalanish samaradorligi.....	1519
Tohirov Sharofiddin Utkir O'g'li, Umarov Abdulaziz Abdulatib o'g'li, Yuldashev Abduxakim Abdukarimovich	
Davlat xaridlari tizimi shaffofligini oshirish orqali tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash yo'nalishlari.....	1523
O'roqov Uchqun Yunusovich, Hayitmurodov Samarbek Sanjar o'g'li	
Raqamli yevro va uning rivojlanish bosqichlari	1528
Tursunova I.X, Alimardonov E.D	
O'zbekistonda barqaror biznesni rivojlantirish.....	1531
Nuraliyeva Komila	
Rivojlangan mamlakatlarda investitsiyalarni jalb qilish – iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili.....	1536
Maxmudxodjaev Avaz Yunusjonovich	
O'zini o'zi band qilishni soliqlar vositasida tartibga solish va rag'batlantirishni takomillashtirish masalalari	1540
Ruziev G'anisher Usarovich	
Роль цифровой трансформации в развитии человеческого капитала: новые возможности для узбекистана	1547
Джультатова Светлана Рахматовна	
Sug'urtada anderrayting xizmatini tashkil etishni nazariy asoslari	1554
Mirzoyev Sayfullo Fayzulloyevich	
Экономическая эффективность оценки жилой недвижимости.....	1559
Суюнов Бехзод Абдумаджитович	
Klaster korxonalariga investitsiyalarni jalb etish	1563
Karimova Nilufar Sadriiddin qizi	
Оценка способности отраслей легкой промышленности региона сохранять устойчивость в условиях конкурентной борьбы.....	1567
Рахмонов Хуршид Хайриiddinovich	
Investitsiya loyihalari samaradorligini baholash va monitoringini tashkil etish yo'nalishlari	1574
Ochildiyeva Naima Mengziya qizi, Ollokulova Feruza Mansurovna	
Integratsiya va ekologik maqsadlar: iqtisodiy hamkorlik va barqaror rivojlanish orasidagi bog'liqlik tahlili.....	1579
Akmal Alisher O'g'li Abdujabborov	
Buxoro shahri mehmonxonalarida inklyuziv turizm uchun yaratilgan shart-sharoitlar va ularni rivojlantirish yo'nalishlari	1583
Abror Turobovich Jo'rayev, Istamxo'ja Olimovich Davronov	
Real sektor korxonalarida mahsulot tannarxini tahlil qilish va uni minimallashtirish.....	1588
Xudoyqulov Iloxom Jovmart o'g'li	
The main role of electronic document exchange technologies in the digitization of the economy in Uzbekistan and their development directions.....	1593
Sherali Toshniyozov	
Prospects of digital bank development in Uzbekistan.....	1598
Ziyadullayev Zuxriddin	
O'zbekiston Respublikasining innovatsion ko'rsatkichlarini korrelyatsion regression taxlili	1603
Abdullayev Bahodir Abdug'afarovich	



Innovasion boshqaruvning ilg'or xorijiy tajribalari.....	1611
Yusupova Jamila Karamatdinovna	
Biriktirilgan va tartibga soluvchi soliqlarning muvofiqligini ta'minlash orqali mahalliy budjetlar moliyaviy barqarorligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish.....	1615
Turolova Nigora Xolmurod qizi	
Nonparametric sequential point estimation of an unknown characteristic function.....	1621
Rakhimova Gulnoza Gafurovna	
Оценка потенциала инноваций и цифровизации для повышения конкурентоспособности газовой отрасли в Узбекистане	1629
Хамитов Фахри Махмуд угли	
Aksiyadorlik jamiyatlarida soliqlarni rejalashtirish metodologiyasining bazaviy komponentlarini baholash.....	1634
Shernayev Akbar Aqmirzayevich	
Mahalliy budjetlarning moliyaviy faoliyatini amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	1639
Inogamov Xayot Ilyasovich	
Oliy ta'lim myassasalarida innovasion menejment strategiyalarini ishlab chiqish va joriy etishning nazariy asoslari.....	1644
Pulatova Dildora	
ECG signallarini tahlil qilish uchun yangi texnikalar.....	1649
Uzoqov Farxod G'afforovich	
Neft shlamlaridan iqtisodiy samarador ikkilamchi xom ashyo olishning tahlili.....	1657
Ochilov Abduraxim Abdurasulovich, O'rinov Xurshidjon Xayriddin o'g'li, Uzakbaev Kamal Axmet uli	
Oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni mahallalarda yuritilish holati.....	1662
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna	
Tadbirkorlik subyektlarini innovatsion faoliyatini rag'batlantirish va rivojlantirish.....	1666
Daniyarov Kuatbay Dauirxanovich	
Korxonalar raqobatbardoshligini baholash.....	1670
Jalilov Bahrom Sotiboldiyevich	
Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini soliq mexanizmlari orqali rag'batlantirishning amaliy jihatlari	1674
Ergashev Otamurod Tashtemirovich	
Qurilish sanoati korxonalarida boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish	1679
Utarov Doniyorbek G'ayratbek o'g'li, Saidov Mash'al Samadovich	
Barqaror rivojlanish va mintaqalar ijtimoiy-ekologik holati bilan bog'liq tahlillar	1683
Komilova Nilufar Karshiboyevna	
Стратегическое планирование и прогнозирование экономики Узбекистана.....	1692
Тохиоров Талъат Олимжонович	
Tijorat banklarini tizimi barqarorligi ta'minlovchi aktivlarining prognozi.....	1700
N.Q. Xolov	
Synthesizing System Analysis, Mathematical, and Econometric Modeling to Foster Sustainable Development and Environmental Preservation: A Pathway to Enhancing Happiness and Social Capital.....	1704
Ostonaqulova Gulsarakhon Mukhammadyoqub kizi	
Диверсификация услуг в сельской местности в условиях цифровой экономики	1711
Халимов Шахбоз Халимович	
Kavar (capparis spinosa L.) o'simligining rivojlanish davrlarini mevasining sifat ko'rsatkichlariga ta'siri.....	1716
Merganov Avazxon Turgunovich	
Содействие занятости в сельских районах в целях сокращения масштабов бедности.....	1719
Умирзокова Мухаббат Исмаджон кизи	
O'zbekistonda yo'llarning sifatini oshirgan holda investitsiyalarni jalb qilish asoslari	1723
Raximov Dilshodjon	
O'zbekistonda tadbirkorlikni innovatsion rivojlantirish holatining iqtisodiy tahlili	1727
Begmatova Shaxnoza Adxamovna	

Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish.....	1736
Shamansurova Zilola Abduvahitovna	
Agrar sektorning iqtisodiyotda tutgan o'rnini va o'ziga xos jihatlari	1743
Utanov Bunyod Kuvandikovich	
O'zbekistonda ko'chmas mulk hamda baholash xizmatlari bozorining rivojlanish holati.....	1747
Ishonqulov Nizamjon Fayzullayevich	
O'zbekistonning eksportga yo'naltirilgan tarmoqlariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish yo'llari	1757
Saparbayev Abat Amanbayevich	
Asosiy vositalar holati tahlilining nazariy asoslarini muhim jihatlari.....	1761
Nurmanov Yarkin Anorboyevich	
Qamrov darajasi past bo'lgan hududlarda maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish samaradorligini oshirish yo'llari.....	1765
Nasurova Kamolaxon Ravshanovna	
Aksiyadorlik jamiyatlarida qimmatli qog'ozlar auditini xalqaro standartlar asosida tekshirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	1771
Rashidov Abror Ro'zimurod o'g'li	
Turistik talablar kontekstida ovqatlantirish xizmatlarining diversifikatsiyasi.....	1775
Yaxshiyev Xusniddin Tolibovich	
Issues of implementation of international standards of environmental audit in practice	1780
Muxammadjanov Muzaffar Muxammadsolixovich	
Buxgalteriya hisobi milliy standartlarini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishning iqtisodiyotimizdagi ahamiyati.....	1784
Narzullayeva Ozoda Qahramon qizi	
Sayyohlar uchun transport xizmatlarining sifat ko'rsatkichlarini baholash.....	1788
Vakilov Ruslan Tillabayevich	
Turistik xizmatlar subyektlari o'rtasidagi fuqarolik-huquqiy munosabatlarning huquqiy asoslari	1792
Sayfiddinov Sharofiddinxo'ja Najmiddin o'g'li	
Qishloq xo'jaligini tartibga solish va prognozlashda kompleks o'zgaruvchili modellardan foydalanish	1796
N.N.Ibragimov	
Korxonalarda ekologik iste'molchilarning xatti-harakatlarini o'rganish.....	1803
Rahmatov Dilshod Sheramat o'g'li	
Improving the international production efficiency of industrial enterprises	1808
Baxanurov Oqil Odil o'g'li, Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi	
Raqamli bank xizmatlarida sun'iy intellektdan foydalanishning istiqbollari va xavfsizlik masalalari.....	1816
Erdonayev Aliqul Halimovich	
Erkin iqtisodiy zonalarda logistika xizmatlarini rivojlantirish masalalari	1821
Muxiddinov Mo'minjon Shavqiddin o'g'li	



ERKIN IQTISODIY ZONALARDA LOGISTIKA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Muxiddinov Mo'minjon Shavqiddin o'g'li

Samarqand iqtisodiyot va servis institut, mustaqil izlanuvchisii
muminjon.mukhiddinov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada erkin iqtisodiy zonalarda logistika xizmatlarini rivojlantirish holatini o'rganish va ularni raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali rivojlantirish masalalari yoritilgan. Maqolada xalqaro logistika samaradorlik indeksi (LPI) metodologiyasining moslashtirilgan varianti asosida O'zbekistondagi erkin iqtisodiy zonalarning rivojlanish holati bo'yicha lokal tahlillar amalga oshirilgan. Logistika samaradorlik indeksi (LPI) tizimi asosida tavsiflovchi va GAP tahlilini birlashtirgan keng qamrovli metodologiyadan foydalanib, bir nechta erkin iqtisodiy zonalarda bo'yicha oltita asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari baholangan. Ushbu tadqiqot natijasidan kelib chiqib, erkin iqtisodiy zonalarda logistika xizmatlarini rivojlantirish yo'nalishlarini aniqlab olish mumkin.

Kalit so'zlar: erkin iqtisodiy zonalarda, logistika xizmatlari, raqamli transformatsiya, logistika samaradorlik indeksi (LPI), GAP tahlili, IoT texnologiyalari, sun'iy intellekt, modulli ombor tizimlari, ta'minot zanjiri, eksport logistikasi.

Abstract: This article examines the state of development of logistics services in free economic zones and their development through the use of digital technologies. The article conducts local analyses of the state of development of free economic zones in Uzbekistan based on an adapted version of the international Logistics Performance Index (LPI) methodology. Using a comprehensive methodology based on the Logistics Performance Index (LPI) system, which combines descriptive and GAP analysis, six key performance indicators were assessed for several free economic zones. Based on the results of this study, it is possible to identify areas for the development of logistics services in free economic zones.

Key words: free economic zones, logistics services, digital transformation, logistics performance index (LPI), GAP analysis, IoT technologies, artificial intelligence, modular warehouse systems, supply chain, export logistics.

Аннотация: В данной статье рассматривается состояние развития логистических услуг в свободных экономических зонах и их развитие посредством использования цифровых технологий. В статье проводится локальный анализ состояния развития свободных экономических зон Узбекистана на основе адаптированной версии международной методологии индекса эффективности логистики (LPI). Используя комплексную методологию, основанную на системе индекса эффективности логистики (LPI), сочетающую описательный и GAP-анализ, была проведена оценка шести ключевых показателей эффективности для нескольких свободных экономических зон. По результатам данного исследования можно определить направления развития логистических услуг в свободных экономических зонах.

Ключевые слова: свободные экономические зоны, логистические услуги, цифровая трансформация, индекс эффективности логистики (LPI), GAP-анализ, технологии Интернета вещей, искусственный интеллект, модульные складские системы, цепочка поставок, экспортная логистика.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotining globalashuvi va xalqaro savdo hajmlarining tez sur'atlarda o'sishi sharoitida logistika xizmatlarining samaradorligi milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biriga aylanib bormoqda. O'zbekistonda ham logistika xizmatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. "O'zbekiston-2030" strategiyasining 53-maqsadiga ko'ra "O'zbekiston Respublikasining global transport-logistika tarmoqlariga integratsiyasini chuqurlashtirish va milliy transport tizimining salohiyatini oshirish" belgilangan [1]. Bu belgilangan maqsad doirasida bir qator amaliy ishlar amalga oirilmoqda. Xususan, "Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston" temiryo'li qurilishi boshlandi. Ushbu yo'nalish Xitoydan Qirg'izistonga, shuningdek, Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlariga, jumladan, Turkiyaga va undan keyin Yevropa Ittifoqiga yuklarni yetkazib berishni ta'minlaydi. Loyiha mintaqalararo aloqalarni mustahkamlaydi, transport yo'nalishlarini diversifikatsiya qilishga va mintaqaning xalqaro transport-tranzit hab sifatidagi raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, "Termiz – Mozori-Sharif – Kobul – Peshovar" Transafg'on temiryo'lining texnik-



iqtisodiy asosini ishlab chiqish bo'yicha uch tomonlama hadli bitim imzolandi. O'rta (Transkasbiy) yo'lagi orqali yuk tashishni rivojlantirish bo'yicha O'zbekiston, Turkmaniston va Ozarbayjon davlatlari hamkorlikda qator kelishuvlarga erishishdi.

Ushbu global darajada amalga oshirilayotgan ishlar bevosita mamlakat ichki logistikasiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Mamlakatda muhim logistika markazlarini tashkil etish, hududlarni logistika imkoniyatlaridan unumli foydalanish, ayniqsa, erkin iqtisodiy zonalarda logistika infratuzilmasini rivojlantirish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Zamonaviy bozor sharoitida erkin iqtisodiy zonalar mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va eksport salohiyatini kengaytirish jihatidan muhim rol o'ynaydi. Biroq, mamlakatimizda tashkil etilgan va faoliyat yuritayotgan erkin iqtisodiy zonalaridagi logistika xizmatlarining past samaradorligi va infratuzilmani yetarli darajada rivojlanmaganligi hududlardagi korxonalarining global ta'minot zanjirlariga to'liq integratsiyalashuviga to'sqinlik qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli iqtisodiy islohotlar va "O'zbekiston-2030" strategiyasida belgilangan maqsadlarga erishish uchun erkin iqtisodiy zonalarda logistika xizmatini zamonaviy standartlar asosida tashkil etish dolzarb vazifalardan biridir. Xalqaro logistika samaradorlik indeksi (LPI) bo'yicha O'zbekiston 160 mamlakat orasida 118-o'rinni egallamoqda. Bu logistika sohasida jiddiy islohotlar zarurligini ko'rsatadi. Ayniqsa, erkin iqtisodiy zonalarda bojxona rasmiylashtiruv, yuk kuzatuv, ombor boshqaruvi va transport xizmatlarida kuzatilayotgan muammolar mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport faoliyatini cheklaydi va umumiy iqtisodiy samaradorlikni pasaytiradi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi erkin iqtisodiy zonalarda logistika xizmatlarining hozirgi holatini kompleks tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va rivojlantirish yo'nalishlarini aniqlab olishdan iborat. Tadqiqot davomida xalqaro tajriba tahlili, deskriptiv va GAP tahlil usullaridan foydalangan holda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan iqtisodiy zonalarda logistika xizmatlarini rivojlantirishning amaliy yo'nalishlari taklif qilindi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Erkin iqtisodiy zonalarda logistika xizmatlarini rivojlantirish masalasini o'rganish uchun xalqaro va mahalliy ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu bo'limda Amerika, Yevropa, Osiyo va O'zbekiston olimlarining ilmiy ishlarini tahlil qilib, mavzu bo'yicha nazariy asoslarni shakllantirish maqsad qilingan.

Amerikalik olimlar L.Zhang hamda M.Cui tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda erkin iqtisodiy zonalarda logistika samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarning rolini o'rganishgan. Mualliflar IoT sensorlari va sun'iy intellekt algoritmlarini qo'llash orqali ta'minot zanjirining shaffofligini 32% ga oshirish mumkinligini isbotlagan [2]. Ushbu tadqiqot erkin iqtisodiy zonalaridagi korxonalar uchun logistika xizmatini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning ahamiyatini qanday darajada ekanligini ko'rsatib berishgan.

Xuddi shunday, S.H.Kim va R.Johnson kabi olimlar o'zlarining tadqiqotida erkin iqtisodiy zonalarda logistika xizmatlarini klasterlashtirish strategiyasini tadqiq qilishgan. Ularning natijalariga ko'ra, logistika xizmatlarini markazlashtirish transportga sarflanadigan xarajatlarni 28% ga qisqartirish imkonini beradi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, erkin iqtisodiy zonalaridagi korxonalar o'rtasida hamkorlik logistika samaradorligini sezilarli darajada oshiradi [3].

A.Martinez hamda D.Williams tomonidan olib borilgan keng qamrovli tadqiqotlarida erkin iqtisodiy zonalarda logistika infratuzilmasini rivojlantirishning iqtisodiy o'sishga ta'sirini o'rganishgan [4]. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, logistika infratuzilmasiga 1 dollar sarmoya kiritilganda 3,2 dollar iqtisodiy foyda olinadi. Bu tadqiqotda mualliflar logistika xizmatlarini rivojlantirish uchun kiritilgan investitsiyalarning yuqori rentabelligini asoslab berishgan.

H.Schmidt va K.Muller [5] Germaniyaning erkin iqtisodiy zonalarida olib borgan tadqiqotida zamonaviy omborxonalar boshqaruvi tizimlarining (WMS) logistika xizmatlari rivojlanishiga ta'sirini o'rganishgan. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, WMS tizimlarini joriy etish zaxira boshqaruvidagi xatolarni 45% ga kamaytiradi va buyurtmalarni bajarish tezligini 38% ga oshiradi. Tadqiqot korxonalar uchun avtomatlashtirilgan tizimlarning muhimligini ko'rsatadi.

G.Rossi va L.Bianchi [6] Italiyaning erkin iqtisodiy zonalarida logistika xizmatlarini barqarorlashtirish yo'nalishlari bo'yicha tadqiqot olib borgan. Ularning tadqiqot natijalariga ko'ra yashil logistika texnologiyalarini qo'llash karbon chiqindilarini 35% ga kamaytiradi va uzoq muddatli istiqbolda xarajatlarni 22% ga qisqartiradi. Bu tadqiqot ekologik barqarorlik va iqtisodiy samaradorlikning birgalikda erishish imkoniyatini tasdiqlaydi.

H.Tanaka va M.Suzuki Yaponiyaning erkin iqtisodiy zonalarida logistika jarayonlarini optimallashtirish uchun "Just-in-Time" (JIT) metodologiyasining qo'llanilishini tadqiq qilishgan [7], [8]. Ularning olib borgan tadqiqotlariga ko'ra, JIT tizimini to'g'ri tatbiq etish zaxiralarni boshqarish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni 40%



ga kamaytiradi va mahsulot aylanish tezligini 55% ga oshiradi. Tadqiqot erkin iqtisodiy zonalardagi korxonalar uchun JIT tizimining moslashtirilgan variantlarini taklif etadi.

A.Karimov va B.Usmanovlar tomonidan olib borilgan tadqiqotda O'zbekistondagi erkin iqtisodiy zonalarda logistika xizmatlarining hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari o'rganilgan. Ularning ta'kidlashicha, erkin iqtisodiy zonalardagi mahalliy korxonalarining logistika xarajatlarining umumiy xarajatlardagi ulushi 18-25% ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich xorijiy tajriba bilan taqqoslaganda 8-12% ga yuqoridir. [9].

Tahlil qilingan tadqiqotlar erkin iqtisodiy zonalarda logistika xizmatlarini rivojlantirish uchun kompleks yondashuvning zarurligini ko'rsatadi. Raqamli texnologiyalar, klasterlashtirish strategiyalari, barqaror rivojlanish tamoyillari va mahalliy sharoitlarni hisobga olish logistika samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda erkin iqtisodiy zonalardagi logistika xizmatlarining hozirgi holatini baholash va ularni rivojlantirish yo'nalishlarini aniqlash maqsad qilingan. Metodologik yondashuv sifatida deskriptiv tahlil va GAP (farq) tahlil usuli qo'llaniladi. Tahlil davomida Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan Logistics Performance Index (LPI) metodologiyasi mahalliy sharoitlarga moslashtirilib, logistika samaradorligini aniqlovchi oltita asosiy indikator (bojxona samaradorligi, infratuzilma sifati, tashish qulayligi, xizmat sifati, kuzatuv imkoniyati va ishonchlilik) bo'yicha ballik baholashlar asosida statistik tahlil olib boriladi. Deskriptiv yondashuv indikatorlarning o'rtacha baholari va standart og'ishlarini aniqlashga xizmat qilgan bo'lsa, GAP tahlili mavjud holat va ideal daraja (5 ball) o'rtasidagi tafovutni ko'rsatdi. Tahlil natijalaridan kelib chiqib, har bir indikator bo'yicha ustuvor islohot yo'nalishlari belgilanadi va ularni bartaraf etish bo'yicha ilg'or xalqaro tajriba asosida innovatsion texnologik yechimlar taklif qilinadi. Shuningdek, metodologiyada kompleks yondashuv qo'llanilib, sifatli tahlilni chuqurlashtirish uchun mavjud statistik ma'lumotlar, xalqaro tajriba va ekspert baholaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Erkin iqtisodiy zonalarning logistika xizmatlarini rivojlantirishda ularning amaldagi holatini chuqur tahlil qilish va mavjud kamchiliklarni aniqlash muhim o'rin tutadi. Shu maqsadda tadqiqot doirasida Xalqaro Logistika Samaradorlik Indeksi (LPI) metodologiyasidan moslashtirilgan holda O'zbekistonning erkin iqtisodiy zonalari bo'yicha lokal tahlil olib borildi. Tahlil oltita asosiy ko'rsatkich (bojxona, infratuzilma, transport, logistika sifati, kuzatib borish imkoniyati, yetkazib berish ishonchliligi) asosida amalga oshirildi.

1. Deskriptiv tahlil natijalari.

Tahlil natijalari erkin iqtisodiy zonalarda logistika xizmatlarining mavjud holatini quyidagi asosiy ko'rsatkichlar orqali tavsiflaydi:

Har bir indikator bo'yicha 1 dan 5 gacha bo'lgan ballik tizimda o'rtacha baho aniqlanib, standart og'ishlar hisoblab chiqildi. Hisoblash quyidagi formulalar asosida bajarildi:

$$\bar{x} = \frac{\sum x_i}{n}, \sigma = \sqrt{\frac{\sum (\bar{x} - x)^2}{n}}$$

1-jadval. Erkin iqtisodiy zonalarda logistika xizmatlari rivojlanish holatining deskriptiv tahlil natijalari

Ko'rsatkich	O'rtacha ball (1–5)	Standart og'ish	Baholash
Bojxona rasmiylashtiruvining samaradorligi	2,7	±0,45	Past
Transport infratuzilmasi sifati	2,9	±0,51	Past
Xalqaro tashishning qulayligi	3,2	±0,38	O'rtacha
Logistika xizmatlari sifati va malakasi	2,8	±0,42	Past
Yuklarni kuzatish imkoniyati	2,6	±0,47	Past
Yetkazib berishdagi ishonchlilik	3,1	±0,41	O'rtacha

Yuqoridagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, erkin iqtisodiy zonalarda logistika xizmati asosan past va o'rtacha samaradorlikni ko'rsatmoqda. Ayniqsa, bojxona jarayonlari, infratuzilma va kuzatuv imkoniyatlarida jiddiy muammolar mavjud.



2. GAP tahlili.

Deskriptiv tahlil natijalariga asoslanib, mavjud holat (real) va ideal holat (5 ballik maksimal model) o'rtasida tafovut aniqlanib, GAP tahlili o'tkazildi.

$$\text{GAP} = \text{Ideal ball} - \text{Real ball}$$

Ushbu tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, eng katta tafovut "yuklarni kuzatish imkoniyati" (2,4) va "bojxona jarayonlari" (2,3) ko'rsatkichlarida kuzatilmoqda. Bu esa iqtisodiy zonalarida logistika samaradorligini oshirish uchun raqamli texnologiyalarni joriy etish, avtomatlashtirilgan bojxona tizimlari, GPS va QR-kodli kuzatuv platformalari kabi innovatsion yo'nalishlar zarurligini anglatadi.

2-jadval. Erkin iqtisodiy zonalarda logistika xizmatlari rivojlanish holatining GAP tahlil natijalari.

Ko'rsatkich	Mavjud holat (o'rtacha ball)	Ideal ball	Tafovut (GAP)	Ustuvorlik darajasi
Bojxona	2,7	5,0	2,3	Yuqori
Infratuzilma	2,9	5,0	2,1	Yuqori
Xalqaro tashish	3,2	5,0	1,8	O'rta
Logistika sifati	2,8	5,0	2,2	Yuqori
Kuzatuv imkoniyati	2,6	5,0	2,4	Juda yuqori
Yetkazib berish ishonchligi	3,1	5,0	1,9	O'rta

Tahlillar natijasida aniqlangan tafovutlar asosida erkin iqtisodiy zonalarda logistika xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha quyidagi innovatsion yo'nalishlarni taklif qilmoqdamiz:

Birinchi, avtomatlashtirilgan bojxona tizimlari, ya'ni "One Window" tizimi – bojxona rasmiylashtiruv, litsenziyalash, sertifikatlash kabi jarayonlarni yagona elektron platforma orqali boshqarish imkonini beruvchi raqamli tizimdir. Tizimda import/eksport qiluvchi kompaniyalar barcha zarur hujjatlarni onlayn topshiradi. Davlat organlari esa ushbu ma'lumotlarga avtomatik kirib, real vaqt rejimida javob beradi. Agarda biz bu tizimni yo'lga qo'ysak ko'p bosqichli byurokratiya, hujjatlarni takroran taqdim etish, kechikkan ruxsatnomalar va inson omilidan kelib chiqadigan subyektivlik kabi muammolarni ma'lum miqdorda kamaytirish imkoniga ega bo'lamiz.

Bunga real misol sifatida Singapurning "TradeNet" nomli One Window tizimi orqali bojxona rasmiylashtiruv va sertifikatlarni o'rtacha 15 daqiqada yakunlashi hamda Qozog'istonning "Single Window for Export-Import Operations" loyihasi orqali 70 dan ortiq xizmatlarni birlashtirganligini keltirishimiz mumkin.

"One Window" tizimini joriy etish uchun davlat organlari (bojxona, veterinariya, ekologiya, transport) o'rtasida tizimli integratsiya olib borish lozim. Shuningdek, elektron hujjat aylanishi uchun yuridik asos bo'lishi hamda korxonalarining raqamli savodxonligini oshirish dastlabki qilinadigan ish hisoblanadi. Iqtisodiy zonalaridagi eksport-import qiluvchi kichik bizneslar uchun bojxona rasmiylashtiruv tezlashadi, xarajatlar kamayadi, va noto'g'ri hujjatlar soni kamayadi. Bu esa ularni global ta'minot zanjirlariga tezroq qo'shilishiga xizmat qiladi.

Ikkinchi, raqamli kuzatuv tizimlari (track & trace) – AI yoki IoT texnologiyalari yordamida real vaqt rejimida yuk harakatini monitoring qilish lozim. Track & Trace tizimi yuklarning harakatini sun'iy intellekt (AI) va Internet of Things (IoT) qurilmalari yordamida real vaqt rejimida kuzatadi. Yuklar GPS-datchiklar, RFID teglar va AI-boshqaruvli platformalar orqali jo'natilgan nuqtadan yetkazilgan nuqttagacha to'liq monitoring qilinadi. Bu orqali biz yuklarning kechikishi yoki yo'qolishi oldini olamiz. Ombor va tranzitda noaniqlikni oldini olish uchun ham sun'iy intellektidan foydalanishimiz mumkin.

Raqamli kuzatuv tizimida gap ketganda Germaniyadagi DHL kompaniyasi AI asosidagi "Smart Sensor Devices" orqali yuk harorati, joylashuvi va holatini kuzatishi buning yaqqol tajribaga asoslangan misolidir. Joriy etish uchun GPS va IoT qurilmalari xarid qilish, mobil ilovalar va veb-platformalarni ishlab chiqish va logistika xodimlarini o'qitish va ma'lumot xavfsizligini ta'minlash ishlarini olib borish lozim.

O'zbekiston uchun foydasi esa iqtisodiy zonalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni ichki va tashqi bozorga ishonchli yetkazib berish imkoniyati oshadi. Xususan, eksport jarayonlarida nazorat darajasi yuqorilaydi va mijozlar ishonchi ortadi.

Uchinchi, modulli ombor tizimlar iqtisodiy zonalarida mobil, avtomatlashtirilgan va energiya samarador logistik markazlar tashkil etish

Modulli omborlar – prefabrikatsiya qilingan, energiya tejavchi, va kerak bo'lsa ko'chiriladigan logistik inshootlardir. Ular qisqa muddatda yig'iladi, avtomatlashtirilgan yuk qabul qilish, saqlash va jo'natish tizimlari bilan jihozlanadi. Bu orqali biz kichik zonalarda doimiy ombor inshootlarining yetishmasligi muammosi oldini olamiz. Saqlash hajmining moslashuvchan emasligi hamda uzoq yuk kutish va joy yetishmovchiligini qisman kamaytirish ham mumkin.



Ushbu modul dastlab Xitoyda Alibaba kompaniyasida yirik shaharlardan chekka zonalargacha modulli omborlarni joylashtirib, yetkazib berishni tezlashtirishda ishlatilgan. Ammo Xitoyning tajribasi bizga hudud va mentalitet jihatdan to'g'ri kelmasligi mumkin va shu sababli Turkiyaning "Cold Storage" modulli tizimini olishimiz mumkin. Bu tizim kichik ishlab chiqaruvchilar uchun mahsulotni eksportgacha saqlashga yordam berib kelmoqda.

Joriy etish uchun mahalliy iqtisodiy zonalarida yer ajratish, omborlarni avtomatlashtirish uskunalari bilan ta'minlash va kichik biznes sub'yektlari bilan klasterli integratsiya qilish lozim. Logistika tarmog'i markazlashgan emas, tarqalgan va moslashuvchan bo'ladi. Ayniqsa, sezilarli eksport salohiyatiga ega korxonalar o'z mahsulotini qisqa muddatli saqlash va jo'natishda muammosiz ishlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalaridan shu aniq bo'ldiki, O'zbekiston erkin iqtisodiy zonalarda logistika xizmatlarining hozirgi holati jiddiy takomillashtirishni talab qiladi. Logistika samaradorlik indeksining oltita asosiy ko'rsatkichi bo'yicha o'tkazilgan GAP tahlili eng katta muammolar yuklarni kuzatish imkoniyati (2,4 ball tafovut), bojxona jarayonlari (2,3 ball tafovut) va logistika xizmatlari sifati (2,2 ball tafovut) sohasida ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot doirasida taklif qilingan innovatsion yo'nalishlar - avtomatlashtirilgan bojxona tizimlari, raqamli kuzatuv platformalari va modulli ombor tizimlari erkin iqtisodiy zonalarda logistika samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Xalqaro tajriba tahlil qilish orqali shuni aniqladikki, Singapurning "TradeNet" tizimi, Germaniyadagi DHL kompaniyasining AI asosidagi kuzatuv tizimlari va Turkiyaning modulli ombor yechimlari kabi innovatsion yondashuvlar mahalliy sharoitlarga moslashtirilganda O'zbekiston xizmat ko'rsatish, aynan logistika sohasini rivojlantirishga hissa qo'shadi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda erkin iqtisodiy zonalarda logistika xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha quyidagi takliflarni ishlab chiqdik:

1. Erkin iqtisodiy zonalardagi transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish. Erkin iqtisodiy zonalarining ichida logistika markazlari va ishlab chiqaruvchilar o'rtasida ichki yo'llar va transport tizimini barpo etish. Erkin iqtisodiy zonalar bilan bog'langan xalqaro logistika yo'laklarini yuqori yuk oqimiga moslashtirish.

2. Erkin iqtisodiy zonalarda logistika markazlari va multimodal terminallarni tashkil etish. Har bir erkin iqtisodiy zonalar hududida zamonaviy logistika markazlarini tashkil etish, jumladan, omborxonalar (sovtkichli va quruq), yuk ortish-tushirish maydonchalari, yuk tashish kompaniyalari ofislari.

3. Erkin iqtisodiy zonalarida logistika samaradorligini oshirish uchun yagona raqamli ekotizimni yaratish lozim. Ushbu platforma avtomatlashtirilgan bojxona moduli ("One Window" prinsipi), real-time kuzatuv tizimi (IoT sensorlari va GPS texnologiyalari), aqlli ombor boshqaruvi (WMS va AI algoritmlar) hamda klaster logistikasi xizmatlarini birlashtiradi. Platforma erkin iqtisodiy zonadagi korxonalariga bojxona rasmiylashtiruv, yuk kuzatuv, zaxira boshqaruvi va birgalikda logistika xizmatlaridan foydalanish imkonini beradi.

4. Har bir erkin iqtisodiy zonalarda tashkil etiladigan logistika markazlarida modulli ombor komplekslari, multimodal transport tugunlari (avtomobil, temir yo'l va havo transportini birlashtiruvchi), eksport tayyorlash zonalarini (sertifikatlash, qadoqlash va rasmiylashtiruv) hamda kadrlar tayyorlash markazlarini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrda "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni.
2. L.Zhang va M.Cui, "Digital transformation in small industrial zone logistics: An IoT-enabled approach" Journal of Industrial Engineering and Management, vol. 14, no. 3, pp. 245-262, 2023.
3. S.H.Kim va R.Johnson, "Collaborative logistics clustering strategies for small industrial zones" Transportation Research Part E: Logistics and Transportation Review, vol. 168, pp. 102-118, 2022.
4. A.Martinez va D.Williams, "Economic impact assessment of logistics infrastructure development in small industrial zones" International Journal of Production Economics, vol. 251, pp. 108-125, 2023.
5. H.Schmidt va K.Muller, "Warehouse management systems efficiency in German small industrial zones" European Journal of Operational Research, vol. 305, no. 2, pp. 445-460, 2023.
6. G.Rossi va L.Bianchi, "Sustainable logistics practices in Italian industrial districts: A comprehensive analysis" Journal of Cleaner Production, vol. 382, pp. 135-152, 2022.
7. H.Tanaka va M.Suzuki, "Just-in-Time implementation in Japanese small industrial zones: Optimization strategies" International Journal of Production Research, vol. 61, no. 4, pp. 1245-1262, 2023.
8. W.Li va A.Wong, "Blockchain-enabled supply chain transparency in Chinese industrial zones" Computers & Industrial Engineering, vol. 175, pp. 108-125, 2022.
9. A.Каримов ва Б.Усманов, "Ўзбекистон кичик саноат зоналарида логистика хизматларини ривожлантириш муаммолари ва ечимлар" Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар, т. 15, № 2, б. 78-92, 2023.
10. Kholmamatov Diyor Haqberdievich, Muhiddinov Mumin Shavkiddinovich. SWOT Analysis of Free Economic Zones (Fez) in Uzbekistan. Gospodarka i Innovacje, 2022. 610-615 pp.
11. <https://www.mintrans.uz/lpi#>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokr ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2024. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Ei.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

